YOSHLARNING JAMOATCHILIK BOSHQARUVIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Sultonboyev Elmurod Dilmurod o‘g‘li

Urganch davlat universiteti talabasi, Xorazm

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarning jamoatchilik boshqaruvida faol ishtirok etishini ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Yoshlarning fuqarolik tashabbuslari, jamoatchilik nazorati, davlat organlari bilan ochiq muloqot hamda qarorlar muhokamasidagi ishtiroki demokratik boshqaruvning muhim elementi sifatida yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning huquqiy faolligini kuchaytirish va ularning tashabbuslarini amaliy qarorlarga aylantirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, jamoatchilik boshqaruvi, huquqiy faollik, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, tashabbus, davlat organlari, demokratik boshqaruv.

Bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishidir. Ayniqsa, demokratik jamiyatda yoshlar faqat davlat siyosatining obyekti sifatida emas, balki uning shakllanishi va amalga oshirilishida bevosita qatnashuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu jihatdan, yoshlarning jamoatchilik boshqaruvidagi faolligini huquqiy jihatdan ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi belgilab qo‘yilgan. Mazkur konstitutsiyaviy norma yoshlarning ham davlat va jamiyat boshqaruvida faol qatnashishi uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi. Ayniqsa, Konstitutsiyada

davlatning yoshlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilishi hamda ularning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirishi alohida e’tirof etilgan.[1] Yoshlarning jamoatchilik boshqaruvidagi ishtiroki turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, jamoatchilik eshituvlari, ochiq muhokamalar, yoshlar kengashlari, fuqarolik tashabbuslari, elektron murojaatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati hamda ommaviy muhokamalarda qatnashish shular jumlasidandir. Bu shakllar yoshlarning fikr va tashabbuslarini davlat organlari faoliyatiga olib kirish imkonini yaratadi.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi asosiy prinsiplardan biri sifatida belgilangan.[2] Mazkur huquqiy norma yoshlarni faqat davlat ko‘magidan foydalanadigan ijtimoiy qatlam sifatida emas, balki jamiyatdagi muhim qarorlar qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatadigan faol kuch sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Shu bilan birga, yoshlar ishtirokining samaradorligi ularning qancha tadbir yoki forumlarda qatnashgani bilan emas, balki bildirgan takliflarining qanchasi real qarorlarda aks etgani bilan o‘lchanishi maqsadga muvofiq. Agar yoshlarning takliflari muhokama qilinsa-yu, lekin ularning natijasi yuzasidan ochiq ma’lumot berilmasa, bunday ishtirok formal tusda qolib ketishi mumkin. Shu sababli davlat organlarining yoshlar tashabbuslariga nisbatan qayta aloqa mexanizmini kuchaytirish lozim. Jahon tajribasida ham yoshlarning mahalliy va mintaqaviy boshqaruvdagi ishtirokiga alohida e’tibor qaratiladi. Yevropa Kengashining yoshlarning mahalliy va mintaqaviy hayotdagi ishtirokiga oid hujjatlarida yoshlar qarorlarni qabul qilishga real ta’sir ko‘rsatishi uchun ularga zarur huquqiy, tashkiliy va axborot imkoniyatlari yaratilishi lozimligi qayd etiladi.[3] Bu yondashuv yoshlarning jamoatchilik boshqaruvidagi ishtirokini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Yoshlar faolligini oshirishda raqamli platformalarning imkoniyatlari ham muhimdir. Zamonaviy yoshlar ko‘p hollarda o‘z fuqarolik pozitsiyasini internet va

ijtimoiy tarmoqlar orqali ifodalaydi. Shu sababli davlat organlari huzurida yoshlarning elektron takliflarini qabul qilish, muhokama qilish va natijalarini e'lon qilish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Bu usul yoshlarning davlat boshqaruviga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish bilan birga, qarorlar ochiqligi va shaffofligini ham oshiradi. Fikrimizcha, yoshlarning jamoatchilik boshqaruvidagi faolligini yanada oshirish uchun uchta muhim yo'nalishga e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligini kuchaytirish; ikkinchidan, ularning takliflarini bevosita davlat organlariga yetkazadigan doimiy mexanizmlarni rivojlantirish; uchinchidan, yoshlar tashabbuslarining natijadorligini baholash tizimini joriy etish lozim. Ayniqsa, mahalliy darajada yoshlar kengashlari va vakillik organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning jamoatchilik boshqaruvidagi ishtiroki demokratik davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Huquqiy mexanizmlarning mavjudligi bu boradagi dastlabki shart bo'lsa, ularning real ishlashi va yoshlar tashabbuslarining amaliy natijaga aylanishi asosiy mezon hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarning fikrini eshitish bilan cheklanmay, ularning takliflarini qarorlar mazmuniga singdirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. - 36, 79-moddalar.

2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ–406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonuni.- 4-modda.
3. Council of Europe. Revised European Charter on the Participation of Young People in Local and Regional Life. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2003. – P. 7–8.